

Ona yurti - oltin beshig

TONG Yulduzi

№15 (66348)
2002 yil
12 aprel, juma

Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.



BALKI BUNGA SABABCHII

Qalbmida bir entikish hokim,
Qalbmida bir shirin hissiyot.
Bilmam buni solib qo'ydi kim,
Yo berdimi tuyg'uni hayot,
Tilga tushdim o'n olti yoshda!

Ko'zlarimda jilva, nur to'la,
Ko'zlarimda sir bor, sehr bor.
Yuragimda ajib g'ulg'ula,
Balki bunga sababchi bahor...
Dilga tushdi o'n olti yoshda.

BAHOR...

Qaylargadir talpinar yurak,
O'zga oro bergan bo'laman.
Oxiri yo'q bu oliy tilak,
Goh homush, goh zavqqa to'laman,
Shu sehrkor o'n olti yoshda.

**USHBU
SONDA**

MAKTABIMIZ YURAGI

RAQOBATDAN QO'RQMASA...

SHERIYAT SHAYDOLARI

ZUKKO AVLOD- 2002

MAMMIST TAYSHI ANNA...

SIZGA OSON TUTIBMAN

**ARALASH
TEST**

Bizning to'garak BIR YARIMTA GAP BORMI?

BE'SH OTIRMAI, ZOHIR OTIRI

**MAKTABDAGI
MUHABBAT**

**TO'G'RI
YOL**

Ekologiya NIMA?





Yetakchim - yelkadoshim

Yetakchi o'z nomi bilan yetakchi. Aslida uni butun boshli maktabning urib turgan yuragiga o'xshatishadi.

deydi maktabning bosh yetakchisi Sobirjon Sotvoldiyev,- maktabda

o'quvchilarni Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalash, huquqiy bilimlarini oshirish, sport va

Hech bir musobaqa, hech bir tanlov yoki sayohatlar yo'qki, u bosh-qosh bo'lmasa...

MAKTABIMIZ «YURAGI»

Yetakchining xonasi hech vaqt huvillab turmaydi. Hamisha o'quvchilar bilan gavjum. O'quvchilar bilimlar mamlakatining fuqarolari bo'lsa, yetakchi ularning qadr-doni, eng yaqin kishisi. Ayniqsa, yetakchi - tashkilotchi, yangiliklar yaratuvchi bo'lsa-chi?!

Buloqboshi tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 10-ixtisoslashgan maktab-internat yetakchisi Sobirjon Sotvoldiyev ana shundaylardan. U 1998 yildan buyon «Yil yetakchisi» ko'rik-tanlovining tuman, viloyat bosqichlarida muvaffaqiyatli o'rinlarni egallab keladi. Maktab-internat o'quvchilari esa har yili fan olimpiadalarida, ko'rik-tanlovlarda tuman, viloyatda g'olib bo'lib kelishadi. Test markazlarining ishi ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Nafaqat maktabning, balki boshqa maktab o'quvchilari ham darsdan bo'sh vaqtlarida shu yerda bilimlarini chuqurlashtiradilar.



ommaviy tashkiliy ishlarga ishtiroki, o'z-o'zini boshqarish va kelajakka tayyorlash ishlari olib boriladi. «Yosh huquqshunoslar», «Yosh kitobsevarlar», «Sport va ommaviy ishlar», «Siyosiy axborotchilar», «Kasbim-faxrim», «Yosh ijodkorlar» guruhi a'zolarining olib borayotgan ishlari namunalidir. Maktabimizda o'tkazilayotgan har bir tadbir, uchrashuv va suhbatlar shu guruh a'zolarining tashabbusi va ishtiroki bilan o'tkaziladi. Ayni kunlarda «Ayol-hayot ziynati», «Yosh ijodkorlar» tanlovi, «Spartakiada-2002 sport o'yinlari», «Milliy merosimizni o'rganamiz» mavzusida ajoyib va qiziqarli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ha, qayerda tashkilotchi, faol bilimdon, ijodkor insonlar mehnat qilsalar, shu yerda yutuqlar ko'payadi. Buni maktab-internat yetakchisi olib borayotgan xayrli ishlardan ham yaqqol ko'rish mumkin.

Umida YUSUPOVA,
Buloqboshi tumanidagi
ijodkor o'qituvchi.

-Bizning muvaffaqiyatlarimiz,-

YOTTN (Yosh ta'lim-tarbiya nazoratchilari) klubini tuzganimizda, deb bilaman. Klub a'zolari maktabda asosan ta'lim-tarbiya yo'nalishi bo'yicha ish olib boradilar. Klub o'n bir nafar ishchi guruhidan iborat.

Har bir guruhning maqsad va vazifalari, ishchi tarkibi, ish rejaları bo'lib, ular reja asosida ish olib boradilar. Bular natijasida maktabda

Oynai jahonda Dilshodbek Kattabekov olib boradigan «Mo'jizalar maydonchasi» ko'rsatuvini tomosha qilib boraman. Undagi qiziqarli savollarga

qilishlari g'ashimga tegadi. Axir otaxon, qariyb 75 yildan buyon chop etiladigan bolalar gazetasi «Tong yulduzi» ham

oynai jahon reklamalarida ishtirok etsa. Raqobatdan qo'rqmasa... Ustozlarimiz Salima

Menda fikr bor

namunalarimizni, o'zimiz tuzgan boshqotirmayu topishmoqlarni sevimli gazetamizga yuboradigan bo'ldik.

men ham o'zimcha javob izlashga, bilimimni charxlashga harakat qilaman. Biroq, aytishga ham ikkilanyapman. Unda bolalar uchun mo'ljallangan «Erudit» gazetasini «Respublikada yagona lotin yozuvidagi bolalar gazetasi» deb e'lon

lotin alifbosida-ku. Unda ham qiziqarli boshqotirmalar, topishmoq, she'r, o'quvchilar hayotidagi qiziqarli voqealar, tengdoshlar ijodi beriladiku. Adadini aytmaysizmi? Oltmish mingdan ziyodroq. Men istardimki, o'quvchilarning sevimli nashri «Tong yulduzi» ham

Mirzayeva, Inobat Teshaboyeva, Namuna Meliboyeva, Sohiba Xolmirzayeva, Omina Soliyeva, Ra'no G'oziyeva, Ulfatoy Oxunova, Mo'tabar Shoxmardonalalar topshiriqlariga binoan biz o'quvchilar ham adabiyot va san'at sohasidagi ijod

RAQOBATDAN QO'RQMASA...

Chunki unda Respublikaning chekka-chekka viloyatlaridan kelgan xatlar e'tiborsiz qolmas ekan.

Gulsanam MAMAJONOVA,
Farg'ona viloyati,
Uchko'prik tumanidagi
20-o'rta maktab
o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

3. Xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri

Insoniyat tarixiga xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishga yetaklagan yoki ularni tanazzul va halokatga mahkum etgan turli xil g'oyalar ta'sir o'tkazib kelgan.

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasida «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik»,

Prezident asarlarini o'rganamiz

«umummilliylik», «fidoiylik», «vatandashlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya»

va taraqqiyot tamoyillarini, xalq taqdiridagi yuksalish zaruratini o'zida aks ettirmasa, aksincha, bu intilishlarni rad etsa,

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarga poydevor bo'ldi.

G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

G'oya va mafkura gumanizm

mohiyatiga ko'ra ularga zid bo'lsa, u jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi.

Ana shunday mafkuralardan biri — hokimiyatni qurol kuchi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasidir. Dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager hududida hukm surgan bu mafkura o'zining g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy mohiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutdi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba'zan buzg'unchi mafkura o'zining soxta jozibasi,

aldov va makr bilan omma ongini zaharlab, jamiyatda hukmron mavqeni egallab olishi ham mumkin. Masalan, XX asrning 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyparvar va gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan kurash olib bormoqda.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi — tarixning o'zgarmas qonuniyatidir.

(Davomi bor)



nafar o'quvchiga 86 nafar muallimlar saboq berishadi. Tuman miqyosidagi eng katta tadbirlar, bayramlar, kechalar, olimpiadalar bizning

SHERIYAT SHAYDOLARI

dargohda o'tiladi. Bunday tadbirlar ham bolalarni, ham muallimlarni sinovdan o'tkazadi. Shunisi quvonarliki, ko'rik-tanlovning sharafli shaydolari o'z mashqlari bilan kelishibdi.

Ha, biz bu maktabda olib borilayotgan har bir dars, tadbirlarning zaminida ulkan

mehnatni ko'rdik. Dilbar Komilova, Dilbar Gaipnazarova, Lyubov Serbel, Rimma Umerova kabi ilmi,

tajribali ustozlarga boy maktabning bag'rini yoshlar to'ldirmoqda, ezgu ishlarni davom ettirishmoqda.

Ko'rik-tanlovning natijalari quvonchli va boy bo'ldi. Milliy qadriyatlarimizni yanada boyitish, qadrlash, asrlardan asrlarga avaylab, e'zozlab olib o'tish har birimizning sharafli

Bugunning bolasi

burchimizdir. Toza havomizni saqlashga, tabiatimizni sevishtirishga o'rgatayotgan, kamalak ranglardan mo'jizalar yaratmoqqa chog'lanayotgan oddiygina igit, ip bilan momolarimizdek chevarlikka ixlos qo'yayotgan, o'lkamiz tarixi bilan qiziqayotgan, yuragidagi orzusini qalamga to'kayotgan bu ijodkor tengdoshlarimizga havasimiz keldi.

Zuhra ASQAROVA,
Qibray tumanidagi
25-o'rta maktabning
10-sinf o'quvchisi.

BUVIJONIM

Mening buvim qiziq-qiziq, Ertaklarni o'qiydi. O'qiydi-yu qo'li bilan, Paypoqchalar to'qiydi.

To'qir mayin paypoqlar, Yoki kiyim, qalpoqlar. Buvijonim, buvijon, Sog' bo'ling, bo'ling omon.

Dilafro'z ODILOVA,
30-maktabning
6-sinf o'quvchisi.

KITOBIM USTOZIM

Kitobimdan o'rganaman, Imlarning sozini. Muqaddas deb mening uchun, Kitobim ustozimni. Ustozimdek ulug'dir, O'rgatadi har tilni. Ona tilim kabi qutlug', Kitobim ustozimdir.

Muzaffar MAHAMATKARIMOV,
16-maktabning
4-sinf o'quvchisi.

QALDIRG'OCH

Qaldirg'ochim qaldirg'och, Tinchlik olib keldingmi? Yaxshi kunlardan bizga, Elchi bo'lib keldingmi? Baxtu tole' doimo, Sening shioring erur. Sen uchib kelgan joyda, Fayzu baraka kelur.

Zafar SATTOROV,
16-maktabning
6-sinf o'quvchisi.

Qibray tumani markazidagi 1-o'rta maktab yana bayram tusini oldi. «Iqtidorli bolalar» ko'rik-tanlovining ishtirokchilari o'n yoshdan o'n olti yoshgachaligi bizni quvontirdi. Bu tanlovning maqsadi mehnat ta'limini yanada yaxshilashga qaratildi. Ekologiya, rassomchilik, kashtachilik va o'lkashunoslik shobalarida tengdoshlarimiz nechog'li qobiliyatli ekanliklarini ko'rsatishdi. Biz maktab direktori, ko'p yillik tajribali muallima Mavluda opa Raimova bilan suhbatlashdik.

-Maktabimiz katta. 1273



Yurtboshimiz 2002 yilni «Qariyalarni qadrlash yili», deb e'lon qildilar. Menga esa buvimni ko'rib turish uchun yana bitta bahona topildi. Biz alohida turamiz, buvim bilan esa amakim turadilar. Buvimni sog'insam onam ham, dadam ham dam olish kuni

BUVIJONIMNIKIGA BORAMAN

bo'lsin, der edilar. Endi esa sababi jiddiy. Buvimni ko'rish kerak, vassalom.

Biz nevaralar 40 nafarmiz, chevaralar esa 18 nafar. Buvijonimning «Danagidan ham shirin bo'lgan mag'iz»larimiz.

Shunday tabarruk insonni har kuni ko'rib turmay bo'ladimi, axir?!

*Vazira OVLAKIMOVA,
Sirdaryo viloyati,
Xovos tumanidagi
7-o'rta maktabning
6- «V»sinf o'quvchisi.*

Ustozimiz Salomat opa Xolmo'minova dars o'tish uslubi bo'yicha maktabda yetakchilardan. Ularning darslarida misoli sehrlangandek o'tiramiz. O'tilgan saboq esa qiziqarli va foydali. Biz yangi mavzuni turli o'yin, testlar tarzida o'zlashtiramiz. Salomat opa maktabda tinim bilmay ishlashlaridan tashqari uylarida ham bo'sh o'tirmay yangi ko'rgazmali qurollar tayyorlaydilar. Yaqinda ularning

tavallud

USTOZGA TABRIK

kunlari. Biz 5- «A» sinf o'quvchilari ustozimizni bahoriy bayramlar va tavallud kunlari bilan tabriklaymiz. Ularga chinordek mustahkam umr, mas'uliyatli ishlariga omad tilaymiz.

*Gulchehra SANAQULOVA,
Rushana QILICHOVA,
Maftuna JAMOLOVA,
Samarqand viloyati,
Nurobod tumanidagi
3-o'rta maktabning
5-sinf o'quvchilari.*



Maktabimizda bilimli, zukko, chevar va pazanda qizlar juda ko'p. Ana shunday qizlarimizdan yetti nafari «Balli qizlar» musobaqasi uyushtirib, o'zaro bellashdilar. Musobaqa juda qiziqarli bo'ldi. Ishtirokchilar o'zlarining bor hunar va mahoratlarini ishga soldilar. Ular qiz bolaning salomlashish odobidan tortib, kiyinish madaniyati va uy ishlarini qanday bajarilish kerakligini ko'rsatib berdilar.

Musobaqa so'ngida o'zining zukkoligi bilan tengdoshlari ichida ajralib turgan qizlarga 1-, 2-, 3-o'rinlarni berishdi. Birinchi o'rinni Nigora Allaniyozova, keyingi o'rinlarni men va tengdoshlarim Nigora Kamolova, Jangil Qo'shjanovalar olishdi. Men bu musobaqadan juda xursandman va ustozlarimga rahmat aytaman.

*Bibimaryam XO'JANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli
tumanidagi 57-maktabning 8-sinf o'quvchisi.*

BALLI QIZLAR!

Mehnat ta'limi fani o'qituvchimiz Lola opa Asadova serg'ayrat, tashkilotchi ustozlarimizdan. Ular juda ko'plab tanlov va tadbirlar o'tkazadilar. Yaqinda tashkil qilgan «Balli qizlar» musobaqasi ham juda qiziqarli o'tdi.

Tanlovda 9-, 10-, 11-sinflarning bilimdonu zukko o'quvchilari ishtirok etdilar. Qizlarimiz tanishuv, savol-javob shartlariga puxta hozirlik ko'rib kelganliklarini

namoyish etishdi, liboslar ko'rgazmasi bilan qatnashishdi. Har bir sinf o'z chiqishlari bilan g'oliblikka da'vogar bo'ldi.

Hakamlarning uzoq davom etgan tortishuvidan so'ng birinchilik 10- «A» sinfiga berildi. Tanlovning qolgan ishtirokchilari ham taqdirlandilar.

«Bunday tanlovlarni o'tkazishdan maqsad faqatgina g'alaba emas. Bilmaganlarimizni o'rganib, bilganlarimizni o'rtoqlashamiz. Eng muhimi - do'stligimiz yanada mustahkamlanadi» deyishdi ular.

*Shahribonu MUXIDDINOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
33-maktab o'quvchisi.*

Kunlardan bir kun

TO'G'RI
YO'L

Bir kuni darsimiz kechroq tugadi. Uch o'rtoq uyga borish uchun eng yaqin yo'lni tanladik. Uyga bir ishxonaning hovlisi orqali o'tmoqchi bo'ldik. Ishxona hovlisida ketayotganimizda qorovul payqab qoldi. Do'stim Rashid qochaman, deb sumkasini suvga tushirib yubordi. Men va Sardor devordan sakramoqchi bo'ldik. Lekin devor balandlik qildi va bizni qorovul tutib oldi. O'sha kuni qorovul bizni 19.00 da qo'yib yubordi. Uyga kech borganimiz uchun ota-onamizdan «dakki» yedik...

Shu-shu bo'ldi-yu biz yaqin yo'l bo'lsa-da, qiyin yo'ldan emas, uzoq bo'lsa ham, to'g'ri yo'ldan yuradigan bo'ldik.

*Ilhom MADAMINOV,
Farg'ona viloyati, Bog'dod tumani,
1- umumta'lim maktabining
5- «A» sinf o'quvchisi.*

ATIRGUL



Bir kuni dugonam Hilolaning bog'iga kirdik. U yerda atirgullar chaman-chaman bo'lib ochilgandi. Muattar hidini aytmay sizmi? Turfa rangli atirgullarni juda yaxshi ko'rib qoldim. Uyimizga kelib dadamga aytgan edim, ular: «Kuzda yoki erta bahorda nish urmagan atirgul ko'chatlarini xarid qilib, keyin biz ham ekamiz», - dedilar. Haqiqatdan ham ular aytganidek bo'ldi. Biz uyimiz oldiga juda ko'p gul ko'chatlarini ekdik. Yaqinda bizning ham uyimizdan gullarning muattar hidi ufurib turadi.

*Farida ERGASHEVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
7-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.*

TA'TILDA
TEATRDA

Bahorgi ta'tilni maroqli o'tkazdim. Bahoriy bayramlar, bahoriy kayfiyat, sumalagu xalimlarga to'ydim. Yana turli tomosha-yu konsert dasturlarni aytmay sizmi? Navro'z bayramini tumanimizdagi «Xuvaydo» mahallasi ham qizg'in o'tkazdi. Yana milliy bog'dagi saylning zo'rli-gi-chi. Dam olish o'z yo'liga, biz singlim ikkimiz har kuni tongda 2 soat, kechki payt 2 soatdan dars tayyorlashga ahd qildik. Yil davomida o'tgan mavzularni takrorlash bilan birga yangi o'tilajaklarini ham ishlab qo'ydik. Evaziga Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan namoyish etilgan «Uloqcha» teatriga borib, katta taassurotlar oldik. Teatr syujeti yettita echki bolasi va bo'ri haqidagi ertakka o'xshasa-da, ishonarli va mahorat bilan ijro etilgani meni hayratga soldi. Xullas, ta'tilni juda maroqli o'tkazdik.

*Dilafro'z USMONOVA,
Toshkent shahri,
Shayxontohur
tumanidagi
169-maktabning
5-sinf o'quvchisi.*

BAHOR ELCHISI

*Bahorning elchisi
boychechak chiqdi,
Oq libosin kiydi bodomlar.
Uyg'ondi tabiat, uyg'ondi olam.
Bir olam zavq-shavqqa
to'ldi odamlar.*

Darhaqiqat, o'lkamizda bahor fasli hukmron ekan, tabiat jamoli yanada go'zal, yanada maftunkor. Ayniqsa, gullagan daraxtlar, kurtak yozayotgan barglar isi dimog'larni qitiqlaydi. Qizlar yangi barg chiqarayotgan majnuntol novdalaridan tol popuk taqishgan, qoshlariga o'sma qo'yib, o'zlariga oro berishgan. Yigitlar esa orasta kiyinib, o'zlariga e'tiborni tortishga urinadilar. Bahoriy hissiyotlar ilk muhabbatga yetaklaydi.

Maktab davridagi do'stlik, muhabbat bir umrga saqlanadi, deyishadi. Mehr-oqibat ham yoshlik chog'laridan boshlanib umrbodga muhrlanadi.

Sinfdoshlar, tengdoshlar o'zaro jiplashib, yaxshi-yomon kunda yonma-yon bo'ladilar. Sizda qanday bilmadimu lekin bizda shunday.

*Muhabbat
BOYMURODOVA,
Surxondaryo viloyati,
Qumqo'rg'on tumanidagi
44-maktabning
5- «A» sinf o'quvchisi.*

NOMINGIZ
ABADIYDIR

O'zining shijoati, dovyurakligi bilan jahonni titratgan bobomiz Amir Temur tavalludi kunini keng nishonladik.

El-yurt tinchligi, farovonligi yo'lida o'z huzur-halovatidan kechib, faqatgina xalqini o'ylagan bunday insonni xotirasini unutib ham bo'lmaydi.

Tarixni varaqlar ekanmiz, Amir Temurning faqat va faqat sahovatli ishlar qilgani haqida o'qiymiz. Bu bilan esa faxrlansak arziydi. Chindan ham Movarounnahrning gullab-yashnashi uchun o'z hissasini qo'shgan Amir Temur bobomiz bizning iftihorimizga aylangan.

Biz esa unga munosib bo'lish uchun yaxshi ishlar qilib, ota-onamiz duosini olishimiz lozim. Ana shundagina biz buyuk bobolarimizga xos izdosh bo'la olamiz.

*Go'zal MUXITDINOVA,
Buxoro viloyati,
Kogon shahridagi
4- maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.*

MENING MAKTABIM

Toshkent viloyati, Zangiota tumanida 25 - maktab bor. Ushbu maktabda bilimga chanqoq, san'atga mehr qo'ygan o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladilar. Masalan, Muxtasar Mahammadova rahbarligidagi 9- «A» sinf o'quvchilari ingliz tili bilan

basketbol, karate va fan to'garaklarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishadi.

Shuningdek, Asadulla Yodgorov rahbarligidagi «Xor» jamoasi ham o'quvchilar bilan gavjum.

yor»larni, dostonu allalarni o'rganib borsalar qanday yaxshi. Bu esa ularning ma'naviy boyligini oshirishga ko'maklashsa ajabmas. Bizning asl maqsadimiz ham mana shu,- dedilar Gulbibi aya.

bo'ladilar.

Bir yarim ming o'quvchisi bo'lgan maktabning tashkil

HAMMASI YAXSHI, AMMO...

jiddiy shug'ullanayotgan bo'lsa, 6- «A» sinfi musiqa madaniyatini qunt bilan o'rganishayapti. Bu sinf o'quvchilari maktabning faxri hisoblanadilar.

O'quvchilar darsdan bo'shaganda bichish-tikish, zardo'zlik, tennis,

Bundan tashqari «Qizlar guldastasi» deb nomlangan folklor guruhi ham tashkillangan. Bu ishni nuroniy onaxon- Gulbibi aya Yo'ldosheva o'z zimmalariga olganlar.

- O'quvchilar doira chalishni, laparlari «yor-

-Yaqinda maktabimizda «Qariyalarni qadrlash yili»ga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Unda folklor guruhimiz, xor jamoamiz faol ishtirok etdi,- deya qo'shimcha qildi maktab rahbari Zubayra opa Saparbekova. - Ayniqsa, Respublikaga o'zining yoqimli ovozi bilan tanilib borayotgan o'quvchimiz Diyorbek Mahkamovning qo'shiqlari otaxonu onaxonlarga birdek ma'qul bo'ldi.

Maktabdagi bu kabi yaxshi ishlarga maktabning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Ra'no opa Umarova, «Ma'naviyat va ma'rifat» ishlari bo'yicha direktor yordamchisi Dilfuza opa Usmonovalar ham bosh

etilganiga ham ellik yildan oshibdi. 1997-yilning 1 yanvarida yangi binoning yarim bo'lagi ishga tushdi. Biroq qo'shimcha binoning yana bir bo'lagi haligacha bitkazilmay, chala yotibdi.

Qani endi homiy tashkilot topilsa-yu maktab binosining qurilishida ko'maklashsa... Shunda bolalar jismoniy tarbiya soatlarida qiynalmasdilar. Qo'shimcha darslari to'garak mashg'ulotlarni o'tishda bo'sh sinf xonasini qidirib, ovora bo'lishmasdi.

Feruza

SOYIBJON qizi.



Mana ikki yildirki, Shahar qo'shimcha ta'lim majmuasidagi «Yosh jurnalistlar» klubi o'z faoliyatini davom ettirib kelyapti. Majmuada rusiyzabon bolalari uchun «Yun press» klubi ham ishlab keladi.

Yaqinda «Zukko avlod-2002» iqtidorli bolalarning XI anjumani shahar miqyosida bo'lib o'tdi. Unda klub a'zolari

ZUKKO AVLOD-2002

- Nargiza Karimova, Muqaddas Sayramova, Muxtabar Ahmadjonova, Yuliya Plakida, Yuliya Quvandiyoqova, Nazokat Boboqulovalar faol ishtirok etdilar.

Uch bosqichda o'tkazilgan anjumanda barcha o'quvchilar o'z iste'dodlarini ishga soldilar.

Janrlar bo'yicha topshiriqlarni bajardilar. Ijodiy ishlaridan ayrimlarini hay'at a'zolariga taqdim etdilar.

O'z navbatida hay'at a'zolari ham o'quvchilarning ishlari yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdilar. Anjuman ishtirokchilariga

O'zbekiston Rassomlar uyushmasi akademigi Akmal Nur imzosi bilan «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari topshirildi.

Ra'no NURMATOVA, Toshkent shahar qo'shimcha ta'lim majmuasi bo'lim boshlig'i. «Yosh jurnalistlar» klubi rahbari.



Qadr



Abdusaid Ko'chimov, Fayzi Shohismoilov, Safar Barnoyev va boshqalar hozirgi kunda el-yurt nazariga tushgan. «G'afur G'ulom mukofoti», «Xalq

Mirtemir kabilarning nazari tushganligi aniq. Gazetaning porloq yulduzlaridan biri Habib Sa'dulla va uning safdoshlari ikki asr XX va XXI asrning tabarruk

va g'azallari O'zbekistonning mashhur xonandalari tomonidan kuyga solinib, ijro etilmoqda. Ona Vatanga mehru muhabbatini izhor etgan shoirimiz kuni kecha

IZZAT TAXTI MUBORAK!

- Bemavrid bezovta qilmadimmi? - bu kuni kecha ulug'vorlik yoshiga kirgan, el ardog'iga loyiq, sevimli shoirimiz Omon Muxtorning ovozi edi. «Romitan» haqidagi she'rini o'qib, xushnud' etgach:

- Nima yangiliklar? - deb so'radi.

- Gullar vodiysi, mehmondo'st Namanganni ziyorat qilish arafasidamiz, Omon aka.

- Xushyorsiz-da, singlim. Mana, Habib Sa'dulla ham safimizga yetib keldilar. Oltmish voylarning shoxsupasiga yanada fayz kiradigan bo'ldi.

- Albatta... Tasavvurimda qirq yil ilgarigi bolalar gazetasi hozirgi «Tong yulduzi»ning shinam 38-, 39-, 40- xonalari namoyon bo'ldi.

Aziz bolajonlar! Bu muqaddas dargohdan juda ko'plab piru-ustozlar yetishib chiqdilar.

- O'sha, oltmishinchi yillardagi gazeta tahririyatidagi muhit betakror edi. Mening bu beqiyos davrdagi har bir qadr don do'stinga bir olam muhabbatim bor. Joningga jon, qalbingga shuur, ko'zlaringga nur ato etgan bu dargohni unutish mumkin emas. Suhrob Yo'ldoshev boshchiligida Erkin Malikov, Erkin Xo'jayev, Tohir Malik,

yo'zuvchisi», «Ofarin» mukofotiga sazovor adiblardir.

*Oltmishdan oshib qoldi,
otamning o'rtoqlari,
Oltmishda kuch neligin
bir ko'rarsiz chamalab.
Men-chi?*

*Qolib ketdi mening ham
sho'x bolalik chog'larim,
Oltmishning teng yarmiga
yetibman bir dumalab.*

Kechagina otalarining yoshlarini eslagan yigitlar, bugun o'zlari ham «otaxon» bo'lib qoldilar. Bunday baxtu saodat Habib akaning qalbiga nurdek joylashib, yuzlariga farishtalik bag'ishlabdi.

Qadrli bolajonlar! Habib akangiz o'z maslakdoshlari bilan ona mehri qonayotgan norasida boladek, qo'ltiqlariga yangi yozgan asarlarini bosib, tezroq yetib borsamu o'rtoqlashsam deb yugurib ketardilar. Buni men ardoqli shoiringiz Safar Barnoyev orqali tuyardim. Ertalabki nonushtadayoq biror narsa o'qib berardilar, bizning yuz-ko'zimizga ko'z qirlarini tashlab, fikrimizni uqib olardilar.

Hozirgi «Tong yulduzi»ning yetmish yillik faoliyati davomida unga nafaqat Abdulla Oripov, Abdusaid Ko'chimov, Habib Sa'dulla, Omon Muxtor kabi allomalar, bularning ham ustozlari bo'lmish Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, G'afur G'ulom,

darg'alariga aylandilar. Buyuklik bu - ora yo'lda qolish emas. Bu hayot tarzidagi ko'p narsadan kechib, uzoq kelajakni ko'ra bilish, hayotdan oldinroqda yurib, yaxshilik, bunyodkorlikka erishish uchun kurashmoq demak.

Vatanimiz istiqbolga erishdi, mustaqil bo'ldi. Buni siz tasavvur qilolmaysiz. Ammo ustozlarimiz ikki olamni ko'rdi. Siz bilan birgalikda ilgarigilardan ham ko'rkam, nodir san'at asarlari yaratildi, o'zbekona kiyimlar, qadimiy ma'naviy-madaniy urf-odatlar tiklandi. Yurtimiz haqiqiy O'zbekiston libosiga burkandi. Haykaltaroshlik, tasviriy san'at namunalari rivojlandi. O'zingiz ko'rib turibsiz, muhtasham saroylar, hashamatli binolar qad ko'taryapti. Ulkan ko'priklar shaharlar orasini birlashtirib turibdi. Ana shunday Vatanni ardoqlab, qadriga yetib kuylash Habib Sa'dulla hayoti - ijodining mazmuniga aylandi. Uning «Bahor bilan suhbat», «Yana ostonangda», «Nur qadri», «Usmonatlas», «Bog'lar yurtin bolasimiz» kabi she'rlari, «Istiqlol qo'shig'i», «Ramazon munojoti», «Tazarru», «Shukrona» kabi asarlari istiqbol mevasidir.

Habib akangiz nafaqat shoir, u ajoyib dramaturg, serqirra ijodkor, jamoat arbobi hamdir. Uning ko'plab she'r

Namangan Davlat Universitetining faxriy professori darajasiga yetdi. Mana, ko'rdingizmi, diyorini jonu dili bilan sevgan kishi albatta qadr topadi. Ham yurtini obod qiladi, ham insoniyat qalbiga ezgu niyatlar bag'ishlaydi. Siz ham ana shu obod mamlakatning halolu pokiza farzandlari bo'lib kamol toping. O'zingiz yashab turgan xonadonni yashnatib, opa-singil, otanamiz, aka-ukalaringizga mehribon bo'ling. Undan tashqari, ostonadan chiqishingiz bilan barcha qadam ranjida etgan joylaringizda tozalik, ozodagarchilik, obodonlik bo'lsin. Zero, yurtboshimiz aytganidek:

**Zamini zar, suvi gavhar,
Shu ona yurt barchamizniki!**

Habib Sa'dullaning 60 yoshga to'lishini yolg'iz o'zim emas, siz kelajagi buyuk farzandlarim bilan tabriklashni ixtiyor qildim.

Habib aka! Ijod olamidagi navqiron yoshingiz muborak bo'lsin! Kichkintoy bolalarga otaxon bo'lganingiz qutlug' bo'lsin! Nurdek poklik, farzandlaringiz iqboli, oilaviy baxt, mustahkam sog'lik hamrohingiz bo'lsin. Nabiralar qurshovida charchoqlaringiz tarqab, yayrab - yashnab yurishingizga tilakdoshmiz.

**Malika BARNOYEVA,
Feruza SHOYUSUPOVA.**

Ustoz haqida so'z


KO'MAKCHI

YOZUV

TAXTANI

KO'RGANMISIZ?

Ha, ilm-fanning cho'qqisini egallash, matematik jumboqlarning tagiga yetish, hisob-kitobda adashmaslik maqsadida tayyor shablonu shakllar, formulayu tenglamalar ishlab chiqilyapti. Uning muallifi esa Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 12-o'rta maktabning oliy toifali matematika fani o'qituvchisi Qobil MUSAYEV bo'ladi. «Koordinata tekisligi», «Magnitli doska», «Son o'qi», «Oddiy algebraik va trigonometrik tenglamalar yechimlari» yozuv taxtasi Respublika xalq ta'limi vazirligi tomonidan yuqori baholandi va ayni kunlarda ishlab chiqilmoqda. O'qituvchi tomonidan yaratilgan bu ixtiro o'zining ixchamligi, vaqtni tejashda va turli sharoitlarda foydalanishga qulayligi bilan 2001 yil 23 mayda Toshkent shahrida o'tkazilgan tender komissiyasi tomonidan ma'qullandi. Bu yozuv taxtadan kasb-hunar ta'limi va akademik litseylarda foydalanish yaxshi samara berishi tufayli tenderda Prezident devoni rahbar



«Xalq ta'limi a'lochisi» va «O'qituvchi ixtirochi» unvonlari hamda 1-darajali «Sog'lom avlod» ordeni sohibi Qobil Musayev tomonidan yaratilgan o'quv doskasi o'zining

universalligi, stekoplast materialdan yasalganligi, ko'pgina qo'shimcha elementlar bilan ta'minlanganligi tufayli amaldagilardan farq qiladi.

O'qitish jarayonida undan foydalanish birinchidan, dars materialini o'tishda vaqtning tejalishi va ko'rgazmalik darajasining yuqoriligi jihatidan o'qituvchi mehnatini osonlashtirib, dars samaradorligini oshiradi, ikkinchi tomondan o'quvchilarning o'tilgan materialni o'zlashtirishi osonlashadi...

Yangiligi: 1. Dekart koordinata o'qlari va har bir o'qda 1:5 sm. masshtabli nuqtalarni belgilovchi mixchalar qoqilgan. 2. Koordinata o'qining absissa o'qi son o'qi hamdir. 3. Magnitli doskada 5x5 sm.li katakchalar rangli chiziqlar bilan chizilgan. 4. Turli diametrli rezinalar. 5. Rangli rezinalar. 6. Rangli iplar. 7. Son o'qi uchun tugmachalar. 8. Koordinata boshini parallel ko'chirishda ko'chma chizg'ich (magnitli va magnitsiz). 9. Transportir va h.k.


Sodda va oson tushuniladigan ko'rgazmali qurol barcha

muallimlarning «o'ng qo'li» bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi darsni tinglayotgan o'quvchi uchun esa haqiqiy dastyor. 20 ming nusxada ko'paytirilayotgan ushbu

yo'zuv taxtasi kelajakda har bir matematika sinflarida bo'lishi shubhasiz. Xilmaxil algebraik shakllar, amallar, funksiyalar, sonlarning siru asroridan «so'zlaydigan» yo'zuv taxtasi muallifi shunday deydi:

TILSIMOT OLAMIGA YETAKLASA

-Fanlarning otasi - matematika go'yo tilsimot. Izlansang, o'ylansang, nimadir yaratasan,- deydi Qobil aka Musayev,- Al-Xorazmiy, al-Farobiy, Ulug'bek, Arximed, Dekart kabi o'tmishdagi fozillarning ixtirolari qarshisida lol qolasan kishi. Shunday mo'jizakor yo'zuv



taxtasini yaratsamu u bir zum bo'lsa ham matematika olami sarhadlariga yetaklasa, natijada shogirdlarim bir olam taassurotu ilm egasi bo'lsa, degan o'y meni qiynab kelardi. Aqlni charxlaydigan fan - matematikani yaxshi bilgan bola boshqa fanni ham o'rganishga qiynalmaydi. Fikrlagan bola darsni tez uqadi. Koordinata



tekisligiga qoqilgan mixchalar rezina yordamida harakatlanadi. Ko'pburchak, uchburchak, to'g'ri chiziq, piramida, prizma - hamma-hammasini o'quvchiga ana shu taxta yordamida tushuntirsa bo'ladi. Yoki temirdan yasalgan yo'zuv taxtasi uchun maxsus ko'rgazmali qurolchalar ham yasadim. U funksiyalar, amallar yozilgan karton qog'oz bo'lib, orqasiga magnit yopishtirilgan. Zarur vaqtda taxtaning kerakli joyiga qo'yib dars o'taman. O'zim o'qitayotgan 6-, 8-sinf o'quvchilari shuning uchunmi, bilmadim, matematika fanini jonu dilidan sevisadi. Kerak bo'lsa boshqa tengdoshlariga ham ko'mak berishadi. Men shunday shogirdlarim borligidan faxrlanaman. Bu yangilikni fizika, kimyo, geografiya fanlaridagi ayrim mavzularga ham tadbiq etish mumkin. Shu o'rinda mening 25 yillik izlanishimni qo'llab-quvvatlagan mutasaddi xodimlarda n minnatdorligimni eslatib o'tmoqchiman. Ayniqsa, loyihamni jonlantirgan «Stekoplast», «El» korxonalarini rahbarlariga tashakkurimni aytaman.

Muharrama PIRMATOVA.



O'RNAK OLSAK BO'LADIMI?

Yaqinda Zangiota tumanidagi «Kasb-hunar» kollejida hudud bo'yicha g'olib maktablararo «Siz tarixni bilasizmi?» nomli tadbirning final bosqichi bo'lib o'tdi. Unda 8 ta maktab g'oliblik uchun kuch sinashdi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan o'tkazilgan tadbirning maqsad-mohiyati - o'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, bilimlarini boyitishdan iborat edi. «Sardorlar bellashuvi», «Sahna ko'rinishi», «An'analarimizni o'rganamiz» kabi shartlar asosida o'tgan tadbir qiziqarli va munozaralarga boy bo'ldi.

Hakamlar uchun yaxshilarning ichidan eng yaxshilarini tanlash jarayoni ancha mushkul kechdi. Ancha tortishuvlardan so'ng tumanimizdagi 33-maktab o'quvchilariga birinchi, kollej talabalariga ikkinchi o'rin nasib etdi. Biz ham faxrli o'rinlardan biriga sazovor bo'ldik.

Hammasi yaxshi-yu lekin meni zaldagi tomoshabinlarning xatti-harakatlari, xushtak chalib, ishtirokchilarning ustidan kulib o'tirishlari juda ranjitdi. Bizga talabalarni doimo ibrat qilib ko'rsatishadi.

Lekin biz bu «tarbiyali» aka-opalarimizdan o'rnak olsak, to'g'ri bo'ladimi?

*Nargiza RIXSIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Zangiota
tumanidagi 3 - o'rta maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*

Hozirgi kunda biz yoshlarning bilim olishimiz, hunarli bo'lishimiz, til o'rganib, dunyoviy bilimlar bilimdoni bo'lishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Zamon talabi darajasidagi maktablarda, kompyuterlar bilan jihozlangan

keng, shinam sinfxonalarida saboq olyapmiz. Xullas, qo'limizni qayga

uzatsak, yetadi. Lekin meni bir narsa juda ko'p o'ylantiradi. Hammamiz

BIR YARIMTA GAP BORMI?

ham bunday sharoitlar, g'amxo'rliklarning qadriga yetmaymizmi? Imkoniyatlardan unumli foydalanyapmizmi? Menimcha, yo'q!

O'ramizda darslardan qochib, oltinga teng damlarini behuda o'tkazayotgan, ustozlarini behurmat qilayotgan o'g'il-qizlar ham

yo'q emas. O'zlari o'qimaganlariga yarasha darsda turli odobsizliklar qilib, boshqalarga xalaqit berishadi. O'qituvchilar bilan tengma-teng olishishadi. Ularga bitta gap kam, ikkitasi ko'plik qiladi. Sho'rlik ustozlarimiz bir yarimta gapni qayerdan olishsin?

Bunday o'quvchilarga qarata: «Aziz tengdoshlarim, sizni biz axir yurtimizning kelajagi, ertangi kunimiz-ku. Hozirdanoq fan cho'qqilarini egallamasak, keyin nima bo'ladi?», deya murojaat qilgim keladi.

*Nazokat BOBOQULOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
SHQTM o'quvchisi.*

NIMANIKI XOR QILSANG...

Yurtimizda daryolar, kanallari anhorlar talaygina. Ulardan oqayotgan zilol suv esa juda qadrlil ne'mat. Lekin har doim ham uning qadriga yetavermaymiz. Qishloqlardan oqib o'tayotgan anhorlarni uning atrofida yashayotgan aholi o'z chiqindixonalariga aylantirib olishgan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Kattalarning o'g'il-qizlarini yonlariga olib, anhora chiqindi to'kishayotganini o'zim necha bor ko'rganman. Tanbeh beray desam, yoshlik qilaman. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan naql bor-ku, axir. Nahot ular ota-bobolarimizning «Nimaniki qilsang xor, o'shanga bo'lasan zor», «Suvga tufurish gunoh» degan hikmatli gaplarini unutib qo'yishgan bo'lsa?..



Hademay kunlar isib, chiqindi bilan to'lib-toshgan anhorlardan suv limmo-lim oqa boshlaydi. Qishloq bolalari esa shu suvda cho'miladilar. Ularning biror yuqumli xastalikka chalinib qolmasliklariga kim kafolat bera oladi?

Menimcha, qishloq joylarida ham chiqindi tashlash uchun maxsus joy ajratilib, idishlar qo'yib qo'yilsa, bunday ko'ngilsiz holatlarga chek qo'yilarmidi?!

*Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumanidagi
2 - o'rta maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*



Nargiza AKBAR qizi tayyorladi

SO'NGGI PUSHAYMON...

Salom mening sevimli nashrim «Tong yulduzi»!

Senga maktub yozishimga qachonlardir qilgan xatoim turtki bo'ldi.

Bizning sinf juda ahil, hammaning havasi kelar darajada inoq edi. Lekin sinfdoshlarimning bir-biri bilan qalin do'stligi menga nimasi bilandir yoqmasdi. Balki bunga o'zimning yaxshi do'st bo'la olmasligim sababdir? Tez-tez sinfdoshlarim orasiga tushib, ularni bir-biriga ters qilib qo'yadigan odat chiqardim. Hamma men bilan yaxshi munosabatda bo'lsa ham, men ularga do'stona munosabatda bo'la olmadim. Xullas, niyatimga erishdim ham. Sinfdoshlarim asta-sekin alohida guruhlarga bo'linib ketishdi. Men esa ular tuzgan guruhlarni ham ajratib tashlashga urindim va ajratdim ham. Bir-biroviga yomonlashda, birini-biriga aybdor qilib ko'rsatishda menga yetadigani yo'qdek edi. Ahil sinfdan nom-nishon qolmadi. O'qituvchilarimiz hayron, sinfda esa har kuni urush-janjal avjiga chiqardi. Har kuni biror qiz yig'lagan yoki biror bolaning ko'zi ko'kargan holda dars o'tardik. Menga esa bor-yo'g'i ahillikni yo'qotish kerak edi, xolos.

Lekin, bu ishlarda kimning qo'li borligini sezishdi chog'i, men bilan aloqani uzishdi. To'g'ri-da, ahillikka rahna soluvchi do'st kimga ham kerak?..

Hozir 9-sinfman. Maktabni bitirishimga ham oz fursat qoldi. Sinfda esa... Sinfda birorta ham yaqin do'stim yo'q. Men-ku mayli, ukalarimga ham, akasiga o'xshagan bo'lsa-chi deb, sinfdoshlari unchalik yaxshi munosabatda bo'lishmayapti. Aybdorlik hissi va qilgan qilmishlarimdan boshim egilgan.

Aziz sinfdoshlarim! Meni kechiring! Qilgan qilmishlarimdan pushaymonman. Do'stlik, ahillikning naqadar ulug' ne'mat ekanini tushunib yetdim. Hech kim men kabi ora yo'lda qolmasin.

IBROHIM.

SIZGA OSON TUTIBMAN

Bir kuni darsda dugonam Ziyoda bilan teleseriallar haqida suhbatlashib o'tirardik. Ham darsga xalaqit berib, ham o'zimiz dars tinglamay o'tirganimizdan ranjigan ustozimiz Nasiba opa bizga uch-to'rt marta tanbeh berdilar. Oxiri sabrlari chidamay, jahl bilan darsdan chiqib ketishimizni talab qildilar. Dugonam darrov uzr so'radi. Men esa g'ururim yo'l bermay, indamay chiqib ketdim va shu kundan boshlab darslariga kirmay qo'ydim. Hatto yo'lda duch kelsam salomni ham ravo ko'rmay, indamay o'tib ketardim...

Bir kuni matematika o'qituvchisining kelmagani sababli, 5-

sinfga qarab tur, deb mendan iltimos qilishdi. Xonaga kirsam, to'polon avjida. Amallab tinchlantirdim. «Kitobdaftarlarni ochinglar», desam, o'zimdan 5-6 yosh kichik bolalar ustimdan kulib, mening birorta ham gapimga quloq solishmadi. O'g'il bolalar-ku mayli-ya, qizlarning sergapligini-chi. Bu menga alam qilib, yig'lab yuborishimga oz qoldi. Ana shundagina ustozlarga naqadar qiyin ekanligini bildim. Ustozim meni darsga qo'yidilar. O'qituvchilarning qalbi mehrga limmolim bo'lishini o'shanda angladim. Lekin hali ustozimdan uzr so'raganimcha yo'q.

Ustoz, agar xatimni o'qiyotgan bo'lsangiz, sizdan uzr so'rayman. Bolaligimga borib qilgan xatolarimni kechiring.

O'quvchingiz NIGORA.



Sinfdoshim Nodir bilan qalin do'st edik. Har kuni maktabga birga borib, birga kelardik. Orzu-o'ylarimiz haqida soatlab suhbat qurar, bir-birimizning gaplarimizni tinglab charchamasdik. O'zi uchrashib qolsak, gaplarimiz ham tugay demasdi-da.

Yuqori sinfga o'tganimizdan so'ng bizning do'stligimiz haqida turli gap-so'zlar tarqalib ketdi. Xuddi bizdan boshqa mavzu yo'qdek, hamma «Yigit bilan qiz o'rtasidagi do'stlik bora-bora muhabbatga aylanadi», deb menga u bilan aloqani uzishim kerakligini uqtira boshlashdi. Avvaliga parvo qilmadim. Lekin

«mish - mish»lar meni undan borgan sari uzoqlashtira boshladi. Nodir bilan deyarli gaplashmay qo'ydim. Unga boshqa sinfdoshlarim kabi munosabatda bo'la boshladim. Nodir bu gap-so'zlarning noo'rin ekanini, ko'rolmaganlarning g'iybatiligini ko'p bora ta'kidlar, men esa

DO'STLIKNING O'ZI MUHABBAT EMAS-MI?

uni tushunishni istamasdim. U bilan atigi 2 oygina gaplashmay yura oldim, xolos. Nodirga shu qadar o'rganib qolganman, deb o'ylamagandim. U chinakam do'st edi.

Endi do'stlikni qayta tiklashga urinish navbati menga keldi. Lekin, afsuski, u meni eshitishni ham istamayapti. Men esa u bilan ilgari gidek do'st bo'lishni istayman.

Do'stim Nodir! Iltimos, meni kechir! Seni pok qalbli do'st ekanligingga ishonaman. Agar do'st bo'lib qolsak, bizni hech qanday kuch ayira olmaydi. Ilgarigidek do'stligimiz davom etsin.

Menimcha, har bir yigit, qiz o'rtasida sof do'stlik bo'lishi mumkin. Agar o'zi istasa, albatta.

LAYLO.

Ma'suda ABDUQODIR qizi tayyorladi.



KO'ZIMGA QANDAY QARAYMAN?



Melivoy bobo nevarasi Asliddin bilan ketib borardi.

Nima bo'ldi-yu nevarasi qoqilib, yerparchin yiqildi. Dadasi uni darrov o'rnidan turg'azib, kiyimlarini qoqarkan:

-Asliddinjon, doim ko'zingga qarab yur, deb tayinlayman. Aytganimni qilmaysan. Ko'zingga qarab yurganingda yiqilmasding.

-Dadajon, qiziqsiz-da. Ko'zim qo'limdami? Boshimda-ku, ko'zingga qarab qanday yuraman?

AKAM QATIQ EMAS, ABDULLA

Dasturxon atrofida moshxo'rda ichib, o'zaro gaplashib o'tirishardi. Shunda gapga tez-tez qo'shilib turgan nevarasiga buvisi:

-Moshxo'rdaga ko'p qatiq bo'lmay jim o'tir,-dedi. Buni eshitgan ukasi Abdulaziz dik etib o'rnidan turib, buvisining oldiga bordi-da:

-Buvijon, akam qatiq emas, Abdulla-ku!-dedi.

Karim RAHIM.

Bir shingil bog'dan,
bir shingil tog'dan

TOPISHMOQLAR

Dovdirab kosaga bo'lganda oshiq,
Og'zingni yirtadi shu quruq...



Mevalar orasida bo'lsa ko'rik,
Ehtimol yutib chiqar zarrin ...

Bizning o'rmonlarga yot,
Ola-bula, yo'l-yo'l ot.



Birovdan qochay deb, sira to'kmas ter,
Hayvonot olamin shohi bo'lgan...



Qo'y-qo'zi!
Yo'limdan qoch,
Qornim bugun juda och!



**Jahongir
MIRZAALIYEV.**

1. Shaxmatning vatani.

- A. Avstriya
- B. Hindiston
- C. Vetnam
- D. Braziliya

2. Ilk o'zbek rangli film qachon oynai jahon yuzini ko'rgan?

- A. 1964 yil
- B. 1859 yil
- C. 1959 yil
- D. 1789 yil

3. U shunday shirinki, tatib ko'rging kelaveradi, yana shunday achchiqki, tilingni kuydiradi.

- A. Haqiqat
- B. Asal
- C. Yolg'on
- D. Diyonat

4. Vetnamda

navro'z bayramini qaysi gul ochilgandan so'ng nishonlaydilar?

- A. Bodom
- B. Kungaboqar
- S. Shaftoli

ARALASH TEST

D. O'rik
E. Anor
5. Bodring po'stlog'i bor joyga qaysi hasharot yaqinlashmaydi?

- A. Kapalak
- B. O'rgimchak
- S. Xonqizi
- D. Chivin
- E. Suvarak

6. Kuba gerbida nima tasvirlangan?

- A. Gul
- B. Quyosh
- S. Oy

D. Kalit

E. Yulduzlar

7. Birinchi

olimpiada o'yinlari qaysi shaharda bo'lib o'tgan?

- A. Yunonistonda
- B. Avstriyada
- S. Afinada
- D. Gretsiyada
- 8. Grigoriya

taqvimi va quyosh, oy taqvimi o'rtasida necha kun farq bor?

- A. Farq yo'q
- B. 11 kun
- S. Taqvimlar hammasi bir xil.
- D. 18 kun
- E. 12 kun

Shodiya

ABDULLAYEVA,
Toshkent shahridagi
274-maktabning 10-
sinf o'quvchisi.

«STAKAN» PECHENYESI

Bu shirinlikni tayyorlash uchun margarinni gazda eritib olib, unga iste'mol sodasini qo'shamiz va ustidan shakar solamiz. Boshqa idishga tuxum, sut va tuz solib aralashiramiz, so'ngra ular ustidan yuqorida tayyorlangan margarinli masalliqni qo'shib, un solib qattiq xamir qoramiz.

Qorilgan xamirni 5-10 daqiqa tindirib, qirg'ichdan o'tqazib, gaz patnisiga ozgina-ozginadan solib, o'rtacha olovda pishirib olamiz. Pishib chiqqach, tog'oraga solib, maydalab uqalaymiz. Uqalangan xamir ustidan quyultirilgan sut solib qoramiz va kichikroq stakan olib unga pishirgan xamirlarimizni oz-ozdan solib zichlaymiz.

Agar qo'limizni suvlab zichlasak, xamir qo'limizga yopishmaydi. Stakandan zichlangan xamirni ehtiyotkorlik bilan tushurib olamiz.

Masalliqlar: 200 gr. margarin, 1 piyola shakar, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi, 1 piyola sut, 1 ta tuxum, 1 ta quyultirilgan sut, ozgina tuz, keragicha un.

«NAVRO'Z» SALATI

Tayyorlanishi: Bodring va pomidor somoncha shaklida to'g'raladi, kolbasa yoki pishirilgan go'sht pomidor va bodringga qaraganda maydaroq, somoncha shaklida to'g'raladi. Bu salatga kashnich, selder ko'katlari to'g'rab solinadi.

Mayonezga me'yorga qarab tuz qo'shiladi va masalliq ustiga solib, hammasi qoriladi.

Dasturxon ga tortilmasidan oldin likopchalarga salat bargi qo'yilib, uning ustidan tayyorlangan salatni solib, eng ustiga to'g'ralgan tuxum sepib qo'yiladi. Bu salatimiz ustini yana boshqacha qilib, didimizga mos qilib bezatsak ham bo'ladi.

Masalliqlar: 5-6 ta bodring, 5-6 ta pomidor, 150 gr. kolbasa yoki pishirilgan qo'y go'shti, mayonez, ko'katlar va tuz.

Shaxlo MUTALOVA.

Ochil dasturxon





Bizning asrimizda go'yo hech qanday sir-asror, sayyoramizda bizga noma'lum bo'lmagan hech narsa qolmagandek tuyuladi. Lekin tropik mintaqalardagi odam qadami yetmagan changalzor - junglilar va nam o'rmon- selvalar o'z bag'ridagi sirlarni har kimga ham ochaverishmaydi. Faqat xavf-xatarga to'liq changalzorlarda oylab, yillab daydib yurishga dosh bergan tinib-tinchimas tadqiqotchilargina chekkan zahmatlari evaziga ba'zan ko'z ko'rib, quloq eshitmagan shunaqangi ajib kashfiyotlar qilishadiki!..

TOSH HAYKALLAR VATANI


Indoneziyaning Sulavesi orolidagi Lindu deb ataladigan o'rmonda tadqiqotlar olib borgan amerikalik olimlar bu yerda to'rt yuzdan oshiq tosh haykallarni topishgan.



Tosh haykallarning balandligi 10 santimetrdan tortib 4-5 metrgacha keladi. Odamni tasvirlovchi haykallarning boshlari gavdasiga nisbatan kattaroq, ko'zlari dumaloq, qoshi, yonoqlari, dahani bir tekis joylashgan. Haykallarning qaddi tik, ammo oyog'i yo'q. Shu yerda yashovchi yerlik aholining aytishicha, bu haykallar qilgan gunohlari uchun toshga aylantirib qo'yilgan odamlar emish. Masalan, yerliklar tokalae deb ataydigan haykal zo'ravonligi va shavqatsizligi uchun, tadulako esa guruch o'g'irlagani uchun toshga aylantirilgan ekan. Bu tosh haykallarning ba'zilar chaqchaygan ko'zlariga loy va balchiq to'lib, daryo tubida yotishadi, ba'zilar esa sholizorlardagi o'tlar orasida unutilib ketishgan.




Sulavesi orolidagi ajoyibotlar faqat shulargina emas. Bu yerda «Allo» deb ataluvchi ulkan qush yashaydi. U qanotlarini yozganda 1,5 metrga yetadi, ovozi esa insonning xunuk kulgisini eslatadi. Shuning uchun ham allo yashaydigan o'rmonga kelgan odamning yuragini dahshat bosib, tezroq u yerdan qochib qoladi. Maleo deb nomlangan qush esa ayyorlikda tulkiga ham firib beradi. U bittagina tuxumni issiq buloqlarning yonidagi qumga ko'madi-da, u yer - bu yerdan soxta «o'ra»lar qaziydi - shu yo'l bilan o'zining tuxumiga o'ch yirtqichlarni aldaydi.



Babirusa deb nomlangan jonivorni ko'rsangiz uning cho'chqami yoki begemotligini bilolmay hayratda qolasiz. Yer yuzidagi eng mitti maymun - tarsiye ham shu yerda yashaydi, uning og'irligi bor-yo'g'i 65 gramm keladi. U faqat qorong'i tushganidan so'nggina paydo bo'ladi, kunduzi qayerda yashirib yotishini esa hech kim bilmaydi.



Lore Linduda ilonlar ham juda ko'p bo'lib, odamni ham yutib yubora oladigan to'rsimon naqshli piton (bo'g'ma ilon) ham shu yerda yashaydi. Tarixda uchratilgan yagona ulkan - uzunligi naqd 4,5 metr keladigan piton ham Sulavesidan topilgandi.



G'ORDA YASHOVCHI ODAMLAR


Fillipin arxipelagining g'arbiy qismida joylashgan Palavan orolidagi baland tog'larda taut batu - «g'or odamlari» yashashadi. Dengiz sathidan 2000 metr balandlikda joylashgan bu g'orlarda taut batular ba'zan yarim yilga cho'ziladigan musson yomg'irlaridan jon saqlashadi.



Palavan orolining uzunligi 400 kilometr, eni bor-yo'g'i 4 kilometr keladi va u filippin arxipelagi bilan Malayziyani birlashtiruvchi o'ziga xos «ko'prik» vazifasini o'taydi. Musson yomg'irlari davrida taut batular bambuk naychalardan yasalgan va puflab otiladigan miltiq - sarbakanlar yordamida ov qilishadi va shilliqqurtlar, skoroda deb ataladigan piyoz, kartoshka, guruch bilan ovqatlanishadi. G'ordagi oziq-ovqat tugaganda esa ularni vodiydagi «ombor»lardan olib chiqishadi.

Aholisining soni 100 chog'lik keladigan taut batu qabilasi a'zolari o'zaro ahilligi va hamjihat yashashlari bilan kishini hayratga solishadi.

Ular hech kimni kulfatda o'z holiga tashlab qo'yishmaydi. «Umum qozoni»ga qancha hissa qo'shganidan qat'iy nazar har bir odam bu yerda to'q yashaydi. Chunki, taut batular oziq-ovqatni o'ziga xos usulda taqsimlashadi: kechqurun eng katta g'or - uy oldida «ochildasturxon» - mevalar, sabzavotlar, ildizlar, shilliqqurtlar, ko'rshapalaklar to'la savatlar paydo bo'ladi va odamlar ko'ngli tusaganini olib yeyishadi. Hatto boshqa orol vakillari ham hosil bitmagan vaqtlarda taut batularning huzuriga kelib jon saqlashlari mumkin. Taut batular oxirgi ovqatini ham muhtojlar bilan bo'lishishadi va shu tufayli Palavan oroli aholisi ularni juda hurmat qilishadi.



Xorij matbuoti asosida
Gulnoz TOJIBOYEVA tayyorladi.

Onajonim tabiat



dunyoning yer, ma'dan, «Qushlar bayrami», o'rmon va suv «Gullar bayrami», «Suv resurslarining joylashishi, bayrami» orqali ulardan foydalanish va maktablarda, mahallalarda,

tushuntirilib borilgan va borilmoqda.

Yoshlarning ekologik dunyoqarashini shakllantirishda xalq

maqollari va

hadislardan foydalanilsa

EKOLOGIYA NIMA?

«Ekologiya» atamasi 1866 yilda nemis ekolog olimi E.Gekkel tomonidan kiritilgan bo'lib, tirik organizmlarning tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan demakdir. Ekologik muammolar deganda esa, biz inson jamiyatining hayot va faoliyat muhitini muhofaza qilishni yoki inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolarni tushunamiz va uni hal qilish yo'llarini o'rganamiz. Misol uchun geografiya darsida

asrash kabi mavzular orqali o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berilsa, biologiya darsida esa o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, sut emizuvchilar sinfi, qushlar sinfi, vujudga kelish jarayoni, ularni asrab-avaylash haqida bilim beriladi.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda, ularga ekologik ta'lim-tarbiya berishda oila, mahalla va xalq an'alarining ham muhim o'rni bor. Jumladan, «Navro'z bayrami»,



xiyobonlarda turli xildagi mevali va manzarali daraxtlar ekilib, suvlar quyilib, yoshlar qalbida tabiatga, ona vatanga mehr hissi uyg'onadi. Qariyalarimiz esa yoshlarga «xarom-halol», «gunoh-savob», «uvol» kabi pand-nasihatlarini asosida dastlabki ekologik tarbiyalarni beradilar. Masalan, daraxtlarni sindirish, suvlarni iflos qilish, hayvonlarga shavqatsiz bo'lish, nonni isrof qilish holatlari ro'y berganda uning «uvol», «gunoh» ekanligi

maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki xalq maqollari va hadislarda tabiatni, o'simlik-hayvonot olamini asrash bo'yicha ko'pgina fikrlar bor: «Suvga tupursang, ko'zing ko'r bo'ladi», «Suvi bor yurtning baxti bor» kabilar.

Xulosa qilib aytganda, dunyodagi barcha yoshuqari o'z Vatanning, ona yurtining kelajagini o'ylab, xayrli tadbirlarga o'z hissasini qo'shsa, albatta kelajak avlodimiz bizlardan minnatdor bo'lishiga ishonchimiz komildir.

*Shokir SHODMONOV,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
22-umumta'lim
maktabining direktori.*

Qishin-yozin xovlingizda, ko'chalarda, daraxtlarda uning «churq-churq»ini eshitasiz. Bulbul, bedana, qaldirg'ochlar kabi qish oylarida yurtimizni tashlab, issiq




chumchuqlarsiz tabiat muvozanati buzilishini, hasharotlar ko'payib, don hosili keskin kamayib ketishini anglab yetishgandi.

qiladi. Qorni och bo'lsada, don yoki non ushug'ini topsa, qizg'anmay sheriklarini chaqiradi. Ayniqsa, o'ljasini begona polaponlardan ayamaydi. Bunday xotamtoylik fazilati boshqa qushlarda yo'q. Chumchuqlar ham tabiatimiz ko'rki,

o'lkalarga uchib ketmaydi, hamisha biz bilan birga.

Xabaringiz bo'lsa kerak, bir paytlar Xitoyda uni «Nonimizni yarimta qilyapsan» deya qirg'inga uchratishgan. Xitoyning milliarddan ortiq aholisi 11-13 milliard parrandani yo'q qilib tashlashdi. Ammo, oradan biroz vaqt o'tgach, boshqa davlatlardan sotib olib, ko'paytirishga majbur bo'lishgandi. Chunki

Ha, mittigina bu qushchalar o'z rizqini halollab yeydi, yegan doni evaziga ekinlarni hasharotlardan tozalab beradi. Uning og'irligi 25 grammdan oshmaydi. Ammo kuniga o'z og'irligidan ikki barobar ko'p, ya'ni 50 gramm ovqat yeydi. O'zining doimiy 40 darajali tana haroratini saqlash, chaqqon va harakatchan bo'lish uchun shunday



shahardagi beton uylarimiz oralarida «churq-churq»lab, fayz kiritadi. Bog'u-rog'larimizni, bug'doyzorlarimizni hasharotlardan himoya qilib, rizqu-ro'zimizni saqlashga xissa qo'shadi. Shunday ekan, mitti qanotli do'stlarimizni asraylik, aziz bolajonlarim!


G'ofur JO'RAYEV.

KICHKINA DEMANG BIZNI...



Barchamiz intiq kutgan zumrad bahorga muhabbat haqida suhbatlashdik. fasllar kelinchagi, deya ta'rif beramiz. Yana, uyg'onish, yasharish fasli ham deymiz. Yaqinlarimizga, sizni bahoriy kayfiyat tark etmasin, deya ezgu niyat bildiramiz. Chunki, bahorda yoshu qarining kayfiyati ko'tarinki bo'lishi, yuraklarda allanechuk nafis his-tuyg'ularning uyg'onishi rost.

Bizning to'garak



Kimdir ishqiy mavzudagi she'rini o'qidi, kimdir ertagini. Yana bir hech kimga aytolmay yurgan «yurak dardlari»dan so'zlasa, ba'zilari maktabdoshlari, sinfdoshlari orasida yuz bergan ayrim ko'ngilsiz voqealar haqida gapirib, o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar...

«Istiqlol umidlari» nomli to'garagimizning bu galgi mashg'uloti ham bahoriy kayfiyatda o'tdi. Yuraklarning tubida ardoqlanuvchi eng go'zal tuyg'u - sevgi, aniqrog'i, maktabdagi

Feruza JALILOVA.

«Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo'ladigan bir duri bebahodir».
Abdulla QODIRIY.

BUVIM BILAN SUHBAT

Yoshimiz ancha ulg'ayib qoldimi, bilmaymanu keyingi paytlarda dugonalarim orasida qandaydir «pichir-pichirlar», sevgi borasida qizarib-qizarib sirlashishlar, xat almashishlar ko'payib boryapti. Bu qanday tuyg'u bo'ldiki, shaddod qizlarimizni xomush torttirib, sho'x bolalarni esa o'ychan qilib qo'yyapti?..

O'ylay-o'ylay o'yimga yetolmay, buvijonimni ohista so'roqqa tutdim:

-Bu juda ajoyib tuyg'u. Har kimga ham nasib qilavermaydigan Ollox tomonidan beriladigan ulug'ne'mat, dedilar buyim boshlarimni silab. -Ayni sizning yoshingizdagi o'g'irl-qizlar qalbiga bu ajoyib tuyg'u «me'mon» bo'lishi mumkin. Lekin bu davrda juda xushyor bo'lishingiz lozim. Rahmatli buvang Safar Barnoyev ham «O'n uch yoshlilar» degan she'r yozganlar. Bir o'qib chiqqin, hammasini tushunib olasan. Sevgi qiz bola yuragidagi xazina. Uni e'zozlab, avaylash kerak. Lekin buning uchun shoshmaslik lozim. Eng yaqin sirdoshing - onang bo'lsin, qizim. Menimcha, sevgi muhabbatning to'y o'tgandan keyin bo'lgani ma'qul...

Buvimning gaplari meni o'ylantirib qo'ydi. Demak, to'y o'tguncha sevim bo'lmas ekan-da, siz nima deysiz, aziz tengdoshlarim?

Nilufar MO'MINOVA,
272 - maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.

Litseyimizda Yulduz ismli bir qiz bor. Uni Marjon ismli bola sevib qolibdi. Bir kuni Marjon Yulduzga xat yozib, do'stidan berib yuboribdi. Qiz esa maktubni yashirincha o'qib olib, «xatingni o'qimadim» deya qaytarib beribdi. Bu javobni rizolik alomati deb tushungan Marjon qizning ketidan qolmay yuraverdi. Zumda «falonchi pismadonchini sevarmish» degan gaplar tarqaldi. Menimcha, Yulduz noto'g'ri yo'l

tutgan. Marjonga qarata: «Meni tinch qo'y. Sevish-sevilishga biz



KIM HAQ?

hali yoshlik qilamiz. Hozir faqat o'qishimizni o'ylashimiz lozim» deganda, olam guliston bo'lardi. Marjon ham to'g'ri tushungan bo'larmidi-a?

Shahnoza OYDINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis san'at litseyi
o'quvchisi.

Nodir ismli bir do'stim bor. 9-sinfda o'qiydigan Oydin ismli qizni sevib qolibdi. Ming xil mulohazaga borib, oxiri unga xat yozdi. Oydin maktabimizning eng oldi qizlaridan, chiroyli, a'lochi, jamoatchi. Nodir esa to'ladan kelgan bola. Buning ustiga bo'yi ham pastroq. Shuning uchun ham unga rad javobini bersa kerak, deb o'ylagandik.

ENDI HURMAT QILMAYMAN

dugonalari bilan o'qib chiqqin, uchrashuv joyida uni intizor kutayotgan Nodirning ustidan rosa kulishar ekan. Keyin esa, ishlarim ko'payib ketib, borolmadim. Falon kuni uchrashaylik, degan mazmunda xat yozib berar ekan. Avvallari Oydinni juda hurmat qilardim. Bu voqeadan so'ng ixlosim qaytdi. Nodir qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u ham inson-ku. Birovning his-tuyg'ulari ustidan kulishga uning nima haqqi bor? Eng yomon tomoni, yettinchi osmonlarda uchib yurgan Nodirning bu gaplardan xabari yo'q. Unga aytishga tilim bormayapti.

Kamol QOSIMOV,
Andijon viloyati,
Xo'jaobod tumani.

Kutilmaganda Oydin ham «o'ldim-kuydim, men ham seni anchadan buyon yaxshi ko'rib yurardimu ayta olmasdim» deya javob yozib yuboribdi. Hatto uchrashuv joyini ham tayin qilibdi. Shunda do'stimning holatini bir ko'rsangiz edi. Dunyoda undan baxtiyor inson yo'q edi, nazarida. Yana «to'lib-toshib» xat yozdi. Keyin bilsam, u qiz do'stimni mazax qilayotgan ekan. Maktubini olib,

YURAGIMGA YOZDIM NOMINGNI

Yuragimga yozdim nomingni,
Xayollarim bo'linib ketdi.
Saboq kirmay, sening ismingni,
Takrorladim, yod bo'lib ketdi.
Bir sinfda o'qisak hamki,
O'zing tortib turasan mendan.
Sen haqingda qancha ko'p bilsam,
Shuncha uzoq bo'laman sendan.
Qizlar kulaversin, menga baribir,
Ko'nglimning aytgani aytgan bo'ladi.
Mening yoshimdagi, men tengi har bir,
Qiz ko'ngliga sevgi mehmon bo'ladi.
Bilolmadim, kimda edi xayoling,
Nahot senga yetib bormadi xatim?
Maktabdagi mening sevgimsan,
Yoshlikdagi ilk muhabbatim!



Yaqinda maktabimizda bir voqea sodir bo'ldi. 9-sinfda o'qiydigan qiz 10-sinfda o'qiydigan bolaga sevgi izhor qilganmish. Bola qizga salbiy javob qaytargani yetmagandek, bu gapni butun maktabga tarqatibdi. Hatto o'qituvchilarimizning ham quloqlariga yetib boribdi. Aytishlaricha, qiz bolaning sevgi izhor qilishi uyat ekan.

G'TYBAT TEZ TARQALADI

Qarabsizki, qiz «yengiltak» degan nom orttirdi. Agar o'sha bola maktabdosh qizning his-tuyg'ulariga hurmat bilan qarab, bu voqeani sir saqlaganda yaxshi bo'lardi. Axir bir kunmas bir kun o'sha bola ham sevgi degan his-tuyg'uga oshno bo'ladi-ku!

Umida YUSUPOVA,

Sirg'ali tumanidagi 305 - ekologiya maktabining

9 - «D» sinf o'quvchisi.



INTIZOR

Qadim zamonda, Buxoro tomonda juda badjahl va xasis bir boy yashagan ekan. Uning husnu jamolda tengi yo'q, ta'rifi yetti iqlimga ketgan yakka-yu yagona qizi bor ekan. Uning chiroyi oyni xira qilar, suv ichsa tomog'idan, sabzi yesa biqinidan ko'rinar ekan. Unga kelgan sovchilarning son-sanog'i yo'q ekan. Hammalari boy-badavlat, tagli-tugli zotlar ekan. Ularning orasida bir kambag'al yigit ham bor ekan. Boy qiziga bo'lgan muhabbati ustunlik qilib, uni qo'lini so'rash uchun saroyga boribdi. Unga hatto darvozani ham ochishmabdi. Yigit kambag'al bo'lsa ham, juda o'ktam, botir ekan. U bilan bellashishga hech kimning yuragi dov bermas ekan. Darvozani bir musht bilan urib yiqitib, ichkariga kiribdi. Bundan xabar topgan boy jallodlarini chorlabdi.

- Boy ota, avval gaplarimni eshitib ko'ring. Men qizingizni sevib qoldim,- debdi yigit jallodlarni turtib. Uning dadilligi boyga yoqibdi va

unga shart qo'yibdi: Birinchidan - son-sanoqsiz qo'y-yu mollar olib kelasan, ikkinchidan - qizim bilan ilm bobida bellashasan, uchinchidan - menga bitta kattakon sher keltirib berasan, debdi. Yigit indamay chiqib ketibdi. Uyiga borib, o'ylab-o'ylab uxlab qolibdi va tush ko'ribdi. Tushida bir nuroniy

BOY QIZINI SEVGAN KAMBAG'AL YIGIT

chol: «O'g'lim, o'rningdan tur, men senga y o r d a m b e r a m a n . Maslahatimni eshit. Tog'u cho'llardan, b o g ' u r o g ' l a r d a n o'tganingdan so'ng bir daryo chiqadi. Daryo yoqasida joylashgan daraxtzorda bir kovak joy bor. O'sha kovak ichiga tushsang, bir dev bor. U uxlab yotgan bo'ladi. Sen uni uyg'otmasdan, yonidagi eshikka kirasan. U yerdagi

qutini olib chiqasan. Uyingga yetib kelgach, qutini ochasan», deb g'oyib bo'libdi. Yigit uyqudan uyg'onib, yo'lga tushibdi. Uzoq yo'l bosib, oxiri tushidagi chol aytgan daryo bo'yiga 40 kun deganda yetib kelibdi. Kovakni izlab topib, uning ichiga tushibdi. Lekin qutini olib chiqayotganda dev uyg'onib ketibdi va yigit

bilan olishibdi. Uzoq olishuvdan so'ng yigit chaqqonlik bilan uni yerga urib o'ldiribdi. So'ngra quti bilan yo'lga tushibdi. O'g'lining eson-om-on qaytganidan otasonasi juda xursand bo'lishibdi. Ichini ochgan ekan, butun uy charog'on bo'lib ketibdi. Uning ichida dunyodagi eng go'zal narsalarning surati bor ekan. Yigit o'ziga kerakli suratlarni ishqalagan ekan, ularga jon



kiribdi. Tong otgach, mollarni, qo'ylarni haydab, bitta sherni qafasga joylab, boyning darvozasini taqillatibdi. Boy yigitni ko'rib, hayratdan yoqasini ushlabdi. Malika ham yigitni ko'rib, oshiq bo'lib qolibdi. «Agar otam shart qo'ymaganda, sen bilan bellashmasdim», debdi. Qiz yigitga jo'n savollar beribdi va uni g'olib deb e'lon qilibdi. Qizining ko'zlaridagi mehrni payqagan boy uni kambag'al yigitga berishga ahd qilibdi. Odamlarning aytishicha, ular hozir ham eng baxtiyor oila bo'lib umr kechirishayotgan emish...

Dilafro'z

OYDINOVA,


Samarqand viloyati,

Oqtosh shahridagi

59 - maktab o'quvchisi.



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



ENIGA: 8. Milliy musiqa asbobi. 9. «Advokatlik osonmi?» asari muallifi. 10. «... yerda qolmas» (maqol). 11. Tovush, ovoz. 12. Munozara, tortishuv. 13. G'o'za g'unchasi. 15. Xalq tomonidan yaratilgan hikmatli gap. 16. Firdavsiy qalamiga mansub asar. 19. Qirg'ovulsimon kichik sayroqi qush. 22. Boylik, mol-dunyo. 24. Yunon mifologiyasidagi quyosh xudosi. 25. Tug'ilishdan o'limga qadar bo'lgan davr. 26. Kelishik qo'shimchasi. 29. Markaziy Amerikadagi davlat. 30. Harorat o'lchash asbobi. 33. Qirg'iziston shimolidagi daryo. 34. Sutkaning bir qismi. 35. Yong'in, olov. 37. Samolyot boshqaruvchisi. 40. Ijzat, izn. 41. O'laksaxo'r

yirtqich qush. 43. Sharqiy Sibirdagi daryo. 45. O'rdaklar oilasiga mansub qush. 47. Uy hayvoni. 48. Ot abzali. 50. Yilning eng issiq va eng sovuq qirq kuni. 51. XVI-XVIII asrlarda Eron davlati poytaxti hisoblangan shahar. 52. Urg'ochi qoramol.

BO'YIGA: 1. Osiyo sharqidagi davlat poytaxti. 2. Mashg'ulot, saboq. 3. Sabr-toqat, matonat. 4. O'zbek adabiyotida dastlabki nasriy me'morial asar. 5. Hamma nuqtalari markazdan baravar uzoqlikda yotuvchi yopiq egri chiziq. 6. Eron davlatining rasmiy tili. 7. Aholidan davlat foydasiga yig'iladigan pul. 14. BMTning 6 rasmiy va ish yuritish tillaridan biri. 15. Kuy, ohang. 17. Yerning tabiiy yo'ldoshi. 18. Musiqiy nota. 20. Yelpinish uchun

ishlatiladigan buyum. 21. Arqon. 22. Aylana markazidan o'tib, uning ikki nuqtasini birlashtirib turuvchi to'g'ri chiziq. 23. Yer sharining shimoliy qutbi. 27. Suvning qotgan holati. 28. Albaniya pul birligi. 31. «Dasht xameleoni» nomini olgan agamasimon hayvon. 32. Ko'rpa, kiyim kabilarning tashqi qavati. 36. Durust, tuzuk. 38. Biriktiruvchi bog'lovchi. 39. «Yolg'izlikda ... yaxshi» (maqol). 41. Tashrif buyurish haqidagi aytuv, chaqiriq. 42. Kasallik turi. 44. «Vazmin»ning aksi. 46. Birovni ko'rolmaydigan, yomonlik qilishni xush ko'radigan. 47. Ish-ulov hayvoni. 49. Surat.

Tuzuvchi:
Akromjon XO'JAMOV.

TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi.

Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.

Buyurtma № T-360

Gazetani

Muhabbat MAXSUDOVA sahifaladi.

Navbatchi:

Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi

№ 000137

Manzilimiz: 700129,

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.

144-63-08